

**MEXANIKA VA INSHOOTLAR SEYSMIK MUSTAHKAMLIGI
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019.T/FM.61.01 RAQAMLI ILMY KENGASH**

**MEXANIKA VA INSHOOTLAR
SEYSMIK MUSTAHKAMLIGI INSTITUTI**

HAMDAMOV MUZAFFAR MUXIDDINOVICH

**AERODINAMIK TADQIQOTLAR ASOSIDA VERTIKAL O'QLI
SHAMOL GENERATORINI ISHLAB CHIQISH VA UNING OPTIMAL
PARAMETRLARINI ANIQLASH**

01.02.05 – Suyuqlik va gaz mexanikasi

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA DOKTORLIK (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата докторской диссертации
Content of the thesis of doctoral dissertation

Hamdamov Muzaffar Muxiddinovich

Aerodinamik tadqiqotlar asosida vertikal o'qli shamol generatorini ishlab chiqish va uning optimal parametrlarini aniqlash3

Хамдамов Музаффар Мухиддинович

Разработка и определение оптимальных параметров ветрового генератора с вертикальной осью вращения на основе аэродинамических исследований....29

Hamdamov Muzaffar Muhiddinovich

Development and determination of optimal parameters of a vertical axis wind generator based on aerodynamic studies55

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works59

**MEXANIKA VA INSHOOTLAR SEYSMIK MUSTAHKAMLIGI
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019.T/FM.61.01 RAQAMLI ILMY KENGASH**

**MEXANIKA VA INSHOOTLAR
SEYSMIK MUSTAHKAMLIGI INSTITUTI**

HAMDAMOV MUZAFFAR MUXIDDINOVICH

**AERODINAMIK TADQIQOTLAR ASOSIDA VERTIKAL O'QLI
SHAMOL GENERATORINI ISHLAB CHIQISH VA UNING OPTIMAL
PARAMETRLARINI ANIQLASH**

01.02.05 – Suyuqlik va gaz mexanikasi

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA DOKTORLIK (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.DSc/T772 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi M.T.O‘razboyev nomidagi Mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.instmech.uz) va "Ziyonet" axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Xujayev Ismatulla Kushayevich

texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Navruzov Kuralbay

Fizika-matematika fanlari doktori, professor

Xalikov Salixdjan Subxanovich

texnika fanlari doktori, dotsent

Normurodov Chori Begaliyevich

Fizika-matematika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Samarqand davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi instituti huzuridagi fan doktori ilmiy darajasini beruvchi DSc.02/30.12.2019. T/FM.61.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil “27” avgust” soat 14:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100125, Toshkent, Do‘rmon yo‘li ko‘chasi, 40, 428-majlislar zali. Tel: (99871) 262-71-52; Faks: (99871) 262-71-32, e-mail: instmech@academy.uz).

Dissertatsiya bilan Mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (32 raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100125, Toshkent sh., Do‘rmon yuli ko‘chasi, 40-uy. Tel.: (99871) 262-71-52).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «15» avgust kuni tarqatildi.
(2025 yil «14» avgust 32 raqamli reyestr bayonnomasi)

M.M.Mirsaidov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, t.f.d.,
professor, O‘zR FA akademigi

F.F.Adilov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi,
PhD, k.i.x.

Z.M.Malikov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor

KIRISH (doktorlik (DSc) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda elektr energiyaga bo'lgan talab ortib borayotgani sababli, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish kengayib bormoqda. 2024 yilda qayta tiklanadigan energiya manbalari dunyoda ishlab chiqarilgan elektr energiyasining 33,5 foizini tashkil qildi va uning 8,6 foizi shamol elektr stansiyalariga to'g'ri keldi. Markazlashgan elektr ta'minotidan yiroqda joylashgan hududlarda va kichik quvvat talab etuvchi iste'molchilarni ta'minlashda shamol energiyasidan foydalanishga alohida ahamiyat berilmoqda. Hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlarda elektr energiyaning salmoqli qismini qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish orqali olinayotganligi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xalqaro qayta tiklanuvchi energiya agentligi (IRENA) tomonidan ishlab chiqilgan shamol energetikasini rivojlantirish konsepsiyasiga ko'ra, 2050 yilga kelib, shamol energetikasi dunyodagi energiya ehtiyojining 35 foizini qondiradi. Agentlik ta'kidlashicha, 2023 yilda qayta tiklanadigan energiya manbalarining umumiy o'rnatilgan quvvati yangi rekord daraja – 3870 gigavattga yetdi. 2024 yilda ishga tushirilgan yangi energiya quvvatlarining 86 foizi qayta tiklanadigan energiya manbalariga tegishli bo'ldi. Bu borada, jumladan past shamol tezliklarida ishlovchi vertikal o'qli shamol turbinasini yaratishga va uning samaradorligini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jahonda kichik tezlikli shamol oqimlaridan foydalanuvchi vertikal o'qli shamol energetik qurilmalarini ishlab chiqish, energetik, aerodinamik va konstruktiv parametrlarini asoslashga doir ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu yo'nalishda, jumladan, kuchsiz shamol oqimili hududlarning iqlim sharoitlariga moslashtirilgan vertikal o'qli shamol energetik qurilmalarini ishlab chiqish, konstruktiv va ish rejim parametrlarini yaxshilash, shamol energiyasidan foydalanish samaradorligini oshirish hamda takomillashtirishga katta e'tibor berilmoqda. Harakatdagi shamol turbinasi aerodinamikasini o'rganish, turli tezliklarda kutiladigan qarshilik kuchi, hosil bo'ladigan kuch momenti va ishlab chiqariladigan elektr energiyasi quvvatini ilmiy bashoratlash dolzarb vazifalardan hisoblanmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda sanoat va maishiy sohalarda energiya manbalaridan foydalanish samaradorligini oshirish, iqtisodiy jihatdan samarali texnologiyalarni joriy etish hamda qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish bo'yicha ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu yo'nalishda shamol energiyasidan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, jumladan, hududlar shamol energiyasining texnik va yalpi potensialini baholash va shunga muvofiq shamol energetik qurilmalarini ishlab chiqish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida, jumladan «Iqtisodiyotni elektr energiyasi bilan uzluksiz ta'minlash hamda “Yashil iqtisodiyot” texnologiyalarini barcha sohalarga faol joriy etish, iqtisodiyotning energiya samaradorligini 20 foizga oshirish»¹ hamda

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 16 fevraldagi PQ-57-son “2023-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejavchi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorida “...2023-yil uchun 2100 MVt quvvatli yirik quyosh va shamol elektr stansiyalarini ishga tushirish...” bo‘yicha vazifalar belgilab berilgan. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda, mintaqaning iqlim sharoitlari, shamol energiyasi potensialini hisobga olib, vertikal o‘qli shamol energetik qurilmasini yaratish hamda uning ilmiy-texnik yechimlarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 21 maydagi O‘RQ-539-son “Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 9 sentabrdagi PF-220-son “Energiya tejavchi texnologiyalarni joriy qilish va kichik quvvatli qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni, 2018 yil 28 apreldagi PQ-3687-son “Qayta tiklanadigan energiya manbalari sohasida investitsiya loyihalarini amalga oshirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2019 yil 22 avgustdagi PQ-4422-son “Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning energiya samaradorligini oshirish, energiya tejavchi texnologiyalarni joriy etish va qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirishning tezkor chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot O‘zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalarini rivojlantirishning IV. “Matematika, mexanika va informatika” ustuvor yo‘nalishiga mos ravishda bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi¹.

Shamol energetikasi bo‘yicha tadqiqotlar dunyoning ko‘plab ilmiy markazlari va universitetlarida jumladan, University of California, Berkeley, University of Cambridge, Institute of Thermodynamics and Mechanics (TU Darmstadt, Germaniya), Institute of Fluid and Gas Dynamics (TU Dresden), Swiss Federal Institute of Technology Zurich (ETH Zurich), National Aeronautics and Space Administration (NASA), University of Massachusetts, Penn State University, Oregon State University, University of Florida, Tsinghua University (Xitoy), shuningdek, Rossiya Federatsiyasidagi ilmiy markazlarda: Markaziy aerogidrodinamika instituti (TsAGI), Moskva aviatsiya instituti (MAI), Sankt-Peterburg davlat texnika universiteti (SPbDTU), Tomsk davlat universiteti (TDU), Moskva davlat fuqaro aviatsiyasi texnika universiteti (MGTU GA), A.M.Obuxov nomidagi atmosfera fizikasi instituti, N.E.Bauman nomidagi Moskva davlat texnika universiteti, RFA Ufa federal ilmiy markazi, S.S.Kutateladze nomidagi

¹ Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi <https://turbmodels.larc.nasa.gov/>; Journal of Approximation Theory, Applied Mathematics and Computation, Journal of Wind Engineering and Industrial Aerodynamics; Journal of Computational and Applied Mathematics <http://www.journals.elsevier.com/mathematics/>; Publish in Scientific Reports; Calcolo, Numerical Algorithms, BIT Numerical Mathematics, *Хисоблаш математикаси ва математик физика журнали*, <http://www.springer.com/mathematics> va boshqa manbalarda materiallari asosida amalga oshirilgan.

Issiqlik fizikasi instituti (SB RAN) kabi nufuzli ilmiy muassasalarda davom ettirilmoqda. Ushbu tadqiqotlar shamol turbinalarining aerodinamikasini chuqurroq tushinish, ularning ish samaradorligini optimallashtirish va energiya ishlab chiqarish unumdorligini oshirishga qaratilgan.

Yangi shamol turbinalarini yaratish uchun ularning turbulent oqim bilan oqib o'tilishi aerodinamikasini aniqlashda katta ahamiyatga ega bo'lgan turbulent modellarni qo'llab modellashtirishga doir ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bugungi kunda SST (shear stress transport – siljish kuchlanishining ko'chishi) va LES (large eddy simulation – yirik uyurmalarini modellashtirish) kabi modellar keng qo'llanilib, shamol turbinalari ishchi sirtlarining oqib o'tilishini chuqur tahlil qilish imkonini bermoqda.

Past shamol tezligida ham samarali ishlaydigan qanotlar shakllari ishlab chiqilmoqda. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, qanotlar qiyalik burchagini o'zgartirish, uzunlik va diametr nisbatini optimallashtirish hamda turli turbinalarni kombinatsiya qilish (masalan, Savonius va Darrieus turbinalari) orqali turli shamol tezliklarida yuqori samaradorlikka erishish mumkin (NASA, Moskva davlat fuqaro aviatsiyasi texnika universiteti va boshqalar).

Shamol turbinalari atrofidagi havo oqimini sonli va tabiiy modellashtirish, shuningdek, ularning konstruktiv xususiyatlarini yaxshilash bo'yicha ishlar faol olib borilmoqda (MAI, SPbDTU, University of California, Berkeley, TU Darmstadt, TU Dresden, Shveytsariya Oliy texnika maktabi (ETH Zurich), AQShning National Renewable Energy Laboratory (NREL) va Daniyaning DTU Wind Energy – Technical University of Denmark).

Shamol energetik uskunalarning barqarorligi va samaradorligini oshirish (Siemens, Vestas, GE Renewable Energy), ishchi qanotlarning kuch xarakteristikalarini yaxshilash va shovqinni pasaytirish (NREL, DTU Wind Energy) borasida ishlar olib bormoqda. Tadqiqotchilarning asosiy e'tibori katta quvvatli shamol energetik uskunalari ishlab chiqishga qaratilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Shamol energetikasi sohasining rivojlanishida dunyoning ko'plab olimlari va muhandislari hissa qo'shishgan. Rossiyada bu sohada peshqadamlardan biri N.E.Jukovskiy bo'lib, u XX asrning boshlarida qishloq xo'jaligi uchun TsAGIda dastlabki shamol-elektr stansiyalari va shamol turbinalarini ishlab chiqishni tashkil qilgan. N.E.Jukovskiy bilan birga shamol energetikasi nazariy asoslarning yaratilishiga katta hissa qo'shgan sovet olimlari va muhandislari qatoriga N.V.Krasovskiy, G.H.Sabinin, E.M.Fateev, R.V.Sektorov, N.V.Vashkevich, V.V.Sidorov va boshqalar kiradi.

Shotlandiyalik fizik Jeyms Blayt 1887 yilda birinchi ishlaydigan shamol elektr generatorini yaratdi. Xalqaro miqyosda shamol energetikasining rivojlanishiga daniyalik muhandis Paul la Kur va amerikalik muhandis Charls F. Brash kabi olimlar katta hissa qo'shdilar. Paul la Kur XX asrning boshlarida shamol energiyasidan elektr energiyasi ishlab chiqarish bo'yicha tadqiqotlar olib borgan. Charls F. Brash esa 1888 yilda birinchi avtomatik shamol elektr stansiyasini qurdi.

Nemis fizigi Albert Betts shamol turbinalari nazariyasining asosiy prinsiplarini ishlab chiqqan va shamol energiyasining maksimal 59,3% elektr

energiyasiga aylantirilishi mumkinligini isbotlagan. Germaniyalik muhandis Ulrix Xyutter yengil va samarali shamol turbinalarini loyihalab, zamonaviy yuqori samarali konstruksiyalarning asosini qoʻygan. Henrik Stiesdal 1980 yillarda shamol turbinalarining rotorlarini, generator tizimlarini va reduktorlarini takomillashtirish bilan shugʻullangan. Dengiz muhandisi va shamol energetikasi boʻyicha tadqiqotchi Uilyam E. Heronemus dunyoda birinchi boʻlib dengiz shamol turbinalarining konsepsiyasini taklif qilgan. Ingliz muhandisi Hubert Medows turli ishchi profillari bilan shamol turbinalarining samaradorligini oʻrganish orqali rotorli mashinalar nazariyasini ishlab chiqishga katta hissa qoʻshgan. Edwin Gray 1950–1970 yillarda shamol turbinalarining aerodinamikasini tajriba tadqiqotlar orqali oʻrgangan.

Avtonom, kichik quvvatli yangilanadigan energiya tizimlarida qoʻllaniladigan elektr generatorlari nazariyasini asoslash va takomillashtirish borasida M.A.Grigoryev, V.I.Zagradyskiy, S.A.Kharitonov, B.S.Zechikhin, M.V.Pronin, S.G.Obukhov, E.I.Zabudskiy, I.P.Kopylov, P.Yu.Grachev, I.M.Kirpichnikova, M.L.Kostyrev, V.G.Nikolaev, E.V.Solomin, V.I.Buyalskiy, I.E.Tamm, shuningdek, xalqaro olimlar M.M.Jovanović, K.Yamazaki, Sul Ademi, Henk Polinder, Alejandro Rolán va boshqa koʻplab taniqli olimlar ish olib borishgan.

Jeyson Jonkman (NREL) ishlab chiqqan FAST va OpenFAST dasturiy modellari turbinlarning ishlashini optimallashtirishda qoʻllanilgan. Shuningdek, u dinamik yuklanishlarni oʻrganib, shamol turbinalarining uzoq muddatli ishlashini taʼminlashga erishgan. Pol Virs (Sandia National Laboratories, AQSh) shamol turbinalari tuzilmalarini optimallashtirish va materiallarini yaxshilash boʻyicha tadqiqotlar olib borgan.

Chjenxua Tsyen elektr tizimlarini boshqarishni optimallashtirish va barqaror elektr energiyasi ishlab chiqarishni taʼminlovchi algoritmlar ishlab chiqish bilan shugʻullangan. Maykl Muskulus (Norvegiya fan va texnologiya universiteti, NTNU) shamol turbinalari ishchi sirtlarining shakli va aerodinamik xususiyatlarini oʻrgangan. U havo oqimlarini chuqur tahlil qilgan va energiya ishlab chiqarish samaradorligini oshirish usullarini ishlab chiqqan.

Oʻzbekistonda alternativ va anʼanaviy energiya manbalariga doir keng miqyosdagi tadqiqotlarni jumladan, Q.R.Allayev, R.A.Zohidov, U.A.Tojiev, O.Z.Toirov, S.S.Xalikov, N.N.Sadullaev, A.B.Safarov, K.T.Alimxoʻjaev, Sh.K.Alimxoʻjaev, T.Nosirov, A.Vasikov, Sh.N.Nematov, D.M.Pulatova va U.G.Dehqonov kabi yetakchi olimlar olib borishmoqda. Energiya tizimlaridagi oqimlarning aero- va gidrodinamikasi bilan bogʻliq masalalar boʻyicha esa X.A.Raxmatulin, J.F.Fayzullaev, K.Sh.Latipov, R.Sadullayev, A.A.Hamidov, I.K.Xujayev, B.X.Xoʻjayorov, K.Navruzov, N.Ravshanov, Z.M.Malikov kabi mahalliy olimlar tadqiqot olib borishgan va olib borishmoqdalar.

Biroq past potentsialli shamol resurslaridan samarali foydalanish imkonini beruvchi vertikal oʻqli shamol energetik qurilmalariga doir ilmiy tadqiqotlar yetarli darajada oʻtkazilmagan. Shuning uchun yangi turdagi shamol turbinalarini yaratish va ularni takomillashtirish boʻyicha ilmiy tadqiqotlarni davom ettirish zarur.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarini bilan bogʻliqligi. Dissertatsiya

tadqiqoti O‘zR FA Mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi institutining ilmiy-tekshirish ishlar rejasiga asosan IL-21071166 «Past shamol tezliklarida ishlaydigan vertikal o‘qli shamol turbinasini ishlab chiqish» (2022-2024 yillar) mavzudagi grant doirasida bajarildi.

Tadqiqotning maqsadi shamolning kichik tezliklarida samarali ishlay oladigan, radial karkas va stopperli yassi qanotlarga ega bo‘lgan vertikal o‘q atrofida aylanuvchi shamol generatorini ishlab chiqish, nazariy va tajriba sinovlari o‘tkazish yo‘li bilan uni optimalashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

vertikal o‘qli shamol qurilmalarini ishlab chiqish va ularning past shamol oqimlarida samaradorligini oshirishga bag‘ishlangan ilmiy ishlarni o‘rganish;

shamolning kichik tezliklarida samarali faoliyat ko‘rsatadigan, vertikal aylanish o‘qi va harakatlanuvchi ishchi elementlarga ega shamol energiya qurilmasini ishlab chiqish;

shamolning turli tezliklari, ishchi yuzaning maydoni, inersiya momenti va ishlab chiqarilgan elektr energiyasi quvvatiga bog‘liq ravishda shamol energetik qurilmasi(ShEQ)ni ishga tushirish jarayonini nazariy tadqiq qilish;

taklif etilgan vertikal o‘qli shamol turbinalari konstruksiyalarini stend va tabiiy sharoitlarda sinovdan o‘tkazish;

vertikal o‘qli shamol turbinasi aerodinamikasini o‘rganish asosida uning o‘lchamlari va konstruksiyasini optimallashtirish;

vertikal o‘qli shamol energetik qurilmalarining texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlarini aniqlash va joriy etilishining iqtisodiy samaradorligini baholash.

Tadqiqotning obyeksi sifatida shamol energiyasidan elektr energiyasi ishlab chiqaradigan shamol turbinalari qaraldi.

Tadqiqotning predmetini shamol energiyasi qurilmasining ekspluatatsiya sharoiti va konstruksiyasidan bog‘liq holdagi aerodinamikasi, aylanish momenti va ishlab chiqarayotgan elektr quvvati tashkil etishdi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot olib boorish jarayonida matematik modellashtirish va hisoblash gidrodinamikasi usullari, shuningdek, aerodinamika va fizikaning tajriba usullari qo‘llanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

turli ataka burchaklarida profillarning aerodinamik xususiyatlari zamonaviy turbulentslik modelidan foydalangan holda tahlil qilinib, oqim tezligi maydoni, bosim taqsimoti hamda ko‘taruvchi kuch koeffitsienti aniqlangan hamda eng yuqori ko‘taruvchi kuchni ta‘minlovchi optimal ataka burchagi $\alpha=8^\circ$ ekanligi va shu burchakda eng yuqori samaradorlikka erishilishi aniqlangan;

vertikal o‘qli shamol energetik qurilmasi harakati turbulentslikning standart $k-\varepsilon$ va SST modellari asosida modellashtirilgan, turli ataka burchaklarida bosim, tezlik, ko‘taruvchi va qarshilik kuchlari orqali qurilmaning optimal parametrlari aniqlab olingan hamda konstruksiyasi ishlab chiqilgan;

ilk marotaba mahalliy xomashyo va materiallar asosida tayyorlangan, konstruktiv jihatdan yangicha yechimga ega bo‘lgan, parraklari ramaga podshipniklar orqali mahkamlangan va holati shamol oqimi yo‘nalishiga bog‘liq

holda avtomatik tarzda ochilib-yopilib turish qobiliyatiga ega bo'lgan vertikal o'qli shamol energetik qurilmasi ishlab chiqilgan (FAP 20241465, IAP 7811);

shamol oqimi tezligining o'zgarishi, turbinaning diametri, parraklar soni, ularning aerodinamik uzunligi va balandligi, parraklarning shamol yo'nalishiga nisbatan og'ish burchagi, shuningdek, parraklarga ta'sir etuvchi kuchlar hisobga olingan holda balans tenglamalari asosida qurilmalarning shamol energiyasidan foydalanish koeffitsiyentini aniqlashga imkon beruvchi matematik model ishlab chiqilgan;

vertikal o'qli shamol energetik qurilmasini ishga tushish jarayoni shamol oqimining tezligi, ishchi sirtning yuzasi va ishlab chiqarilayotgan elektr quvvatini hisobga olgan holda sonli modellashtirilgan hamda turbina momenti, ishlab boshlashning minimal tezligi va turg'un ish rejimiga o'tish vaqtining davomligi aniqlanib, ushbu ko'rsatkichlarga mos keluvchi reduktor va elektr generatorini tanlash uchun tavsiyalar ishlab chiqilgan;

yaratilgan yangi vertikal o'qli shamol energetik qurilmasining o'lchamlarini optimallashtirilishi hisobiga 3–4 m/s tezlikda ham elektr energiyasi ishlab chiqarishi, hamda u an'anaviy qurilmalarga nisbatan material sarfi, shovqin darajasi va aylanish momenti bo'yicha ustunlikka egaligi, samaradorligi o'rtacha 3–10% ga yuqori ekanligi tasdiqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

markaziy elektr tarmog'iga ulanmagan chekka hududlardagi kichik quvvatli iste'molchilarga mo'ljallangan, mahalliy xomashyodan foydalanib tayyorlangan, samarador shamol energetik qurilmasi ishlab chiqilgan;

yaratilgan dasturiy ta'minot yordamida shamol turbinasining optimal konstruktiv parametrlari aniqlagan va kichik shamol tezliklarida ham samarali ishlaydigan qurilma ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi vertikal o'qli shamol turbinalari aerodinamikasi bo'yicha nazariy va stend sinovlarining zamonaviy turbulentslik modellaridan, CFD va o'lchov texnikalaridan foydalanilgan holda yuqori aniqlikda amalga oshirilganligi va olingan natijalarning sinov natijalari ko'rsatkichlariga mos kelishi bilan asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati kichik shamol tezliklarida ishlaydigan, harakatlanuvchi ishchi qanotchalariga ega yangi turdagi vertikal o'qli shamol turbinalari aerodinamik va energetik xususiyatlarini o'rganilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati vertikal o'q atrofida aylanuvchi shamol qurilmasining yanada mukammalroq konstruksiyasini yaratishga imkon berdigan laboratoriya va natural tadqiqotlarni olib borish uslubiyati ishlab chiqilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Vertikal shamol energetikasi qurilmasining samaradorligini oshirish va joriy etish jarayonida olingan ilmiy natijalar asosida:

kichik tezlikli shamol oqimlarida samarali ishlashga moslashtirilgan vertikal o'qli shamol energetik qurilmasi uchun O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi

Intellektual mulk agentligidan patent olingan (FAP 20240465, IAP 7811). Natijada qurilmaning shamol energiyasidan foydalanish koeffitsiyenti C_p ni 3...10 foizgacha oshirish imkoniyati yaratilgan;

kichik tezlikli shamol oqimlarida ishlovchi vertikal o'qli shamol energetik qurilmasining konstruksiyasi takomillashtirilgan hamda Toshkent shahri Mirzo Ulug'bek tumanida Mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi institutida joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Milliy elektr tarmoqlari AJning yil 18 martdagi № 01-04-36/1342 2024 ma'lumotnomasi). Natijada shamol tezligi 3-10 m/s bo'lgan oraliqda ham elektr energiyasini ishlab chiqarish imkoniyati yaratilib, qurilmaning material sarfi va shovqini kamaytirilib, iste'molchining energiya ta'minoti uzluksizligini ta'minlashga erishilgan;

ishlab chiqilgan vertikal o'qli shamol energetik qurilmasi Toshkent viloyati Parkent tumanida "Quyosh qo'rg'oni"da joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Materialshunoslik institutining 2024 yil 20 oktabrdagi № 01-186 ma'lumotnomasi). Natijada tarmoqdan olinadigan elektr energiyasi sarfi 5–10% ga kamaygan;

ishlab chiqilgan vertikal o'qli shamol energetik qurilmasi Buxoro viloyati Olot tumanidagi 10-sonli oilaviy poliklinikaga joriy etilgan (Olot tuman hokimiyatining 2023 yil 18 oktabrdagi № 04-6286 ma'lumotnomasi). Natijada poliklinika uzluksiz elektr energiyasi bilan ta'minlangan va tarmoqdan olinayotgan elektr energiyasi sarfi 5–9% ga kamaygan.

Tadqiqot natijalarining aprobsiyasi. Tadqiqot natijalari 8 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusida jami 36 ta ilmiy ish, jumladan 2 ta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini nashrga tavsiya etilgan 15 ta xorijiy va 7 ta respublika jurnallarida maqolalar chop etilgan. Foydali modelga patent uchun ariza berilgan va 3 ta dasturiy mahsulotlar ro'yxatdan o'tkazilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, beshta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 196 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining zarurati va dolzarbligi O'zbekiston Respublikasining ilm-fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga muvofiq asoslab berilgan, maqsad va vazifalar shakllantirilgan, tadqiqot obyekti va predmeti ko'rsatilgan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslab berilgan, ilmiy yangilik hamda tadqiqotning amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati bayon etilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga tatbiq etish ro'yxati, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tarkibi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobida "**Shamol energiyasidan foydalanish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar va texnik ishlanmalar holatining tahlili**" keltirilgan.

§1.1 da shamolning asosiy xususiyatlari, jumladan, qutbiy oqimlar va mahalliy shamollar tushunchalari bayon etilgan.

§1.2 da vertikal va gorizontal shamol turbinalarining umumiy tuzilishi tahlil qilingan. Shamol generatori turlari tahlili taqdim etilgan. Shamol generatorining elektr energiyasini ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan tarkibiy qismlari haqida ma'lumot berilgan va ularning funksiyalari sanab o'tilgan.

§1.3 da shamol energiyasidan foydalanish bo'yicha jahon tajribasi muhokama qilingan. Retrospektiv va istiqbolli tahlil asosida shamol generatorlar yordamida elektr energiyasi ishlab chiqarishning jahon miqyosidagi rivojlanish sur'atlari yoritilgan.

§1.4 da qayta tiklanuvchi energiya manbalari tarkibi va ularning O'zbekistondagi rivojlanish bosqichlari keltirilgan. O'zbekiston Respublikasida shamol energiyasidan foydalanish rivojlanishi muhokama qilingan. Shamol energiyasidan foydalanib elektr energiyasi ishlab chiqarish bo'yicha xalqaro kelishuvlar va uskunalarni o'rnatish mumkin bo'lgan hududlar haqida ma'lumot berilgan. Hozirgi kunda yirik va kichik shamol turbinalari jadal rivojlanayotgani va ularning iqtisodiyotning energetika sohasini yaxshilashga sezilarli hissa qo'shishi ta'kidlangan.


§1.5 da shamol turbinalarining aerodinamikasi bo'yicha tadqiqotlarning tahlili keltirilgan.

Shamol energetik qurilmalarini tadqiq etish va ishlab chiqish bo'yicha mavjud masalalar holatini o'rganish natijasida ushbu dissertatsiya ishining maqsadi va vazifalari shakllantirildi.

Ikkinchi bob "***k-ε* turbulentslik modeli va Cmsol Multiphysics muhitidan foydalanib yupqa yassi to'rtburchakning turbulent oqim bilan oqib o'tilishini modellashtirish**" deb nomlangan. Ushbu bobda Cmsol Multiphysics dasturining standart yechuvchilari yordamida $k - \varepsilon$ turbulentslik modeli doirasida to'rtburchak aerodinamik profilining oqim bilan oqib o'tilishi bo'yicha hisoblash natijalari taqdim etilgan. To'rtburchak profilining oqib o'tilishi Reynold sonlarining $10000 < Re < 2000000$ oralig'ida va ataka burchagining $\alpha = 0^\circ - 20^\circ$ qiymatlarida o'rganildi. Ataka burchagining turli qiymatlari uchun tezlik, bosim va boshqa parametrlar bo'yicha natijalar olindi. Cmsol Multiphysics dasturiy majmuasining qo'llanilishi modelning yaxshi yaqinlashuvi, barqarorligi va yuqori aniqligini namoyish etdi. Ishlatilgan matematik modelning adekvatligi NASA 0012 profilining oqim bilan oqib o'tilishini hisoblash orqali tasdiqlandi, bunda ushbu qo'llanilgan shartlar to'rtburchak profili uchun ham inobatga olindi.

§2.1 da yupqa yassi to'rtburchak plastinkaning kichik ataka burchaklarida bir jinsli turbulent oqim bilan oqib o'tilishini masalasi o'rganildi. Hisoblash uchun ikki o'lchovli sohaning geometriyasi 1-rasmda berilgan.

Plastinka harakatsiz holatda deb qabul qilingan. Kirish chegarasi yarim aylana shaklida olingan bo'lib, u plastinkaga ataka burchagining ruxsat etilgan qiymatlarida qo'zg'almagan oqim chegarasi sifatida qabul qilingan.



1-rasm. Plastinkani oqim bilan oqib o'tilishi sohasining geometriyasi

Yarim aylananing markazi $(0.5;0)$ nuqtada joylashgan bo'lib, uning radiusi 20 metrni tashkil etadi. Bu nuqta plastinkaning oldingi chegarasiga to'g'ri keladi. Yarim aylana va chegaralar uchun shartlar $y = \pm 20 m$ (G_1 chegara) ataka burchagiga bog'liq holda olindi:

$$U(x_{G_1}, y_{G_1}) = u_0 \cos \alpha,$$

$$V(x_{G_1}, y_{G_1}) = u_0 \sin \alpha,$$

$$k(x_{G_1}, y_{G_1}) = \frac{3}{2}(u_0 l_T)^2, \quad \varepsilon(x_{G_1}, y_{G_1}) = C_\mu^{3/4} \frac{k^{3/2}}{L_T}, \quad (1)$$

bu yerda u_0 – yo'nalgan oqimning tezlik moduli; α – oqim yo'nalishi bilan OX koordinata o'qi orasidagi burchak.

Ushbu chegarada oshig'ich bosim qiymati nolga teng: $P(x_{G_1}, y_{G_1}) = 0 Pa$. Hisoblash sohasida plastinka $\delta = 0,8$ mm qalinlik va $l = 1$ m uzunlik bilan aniqlangan. Mos ravishda, $G_2 = [(x = 0 \cup x = 1, \cap |y| \leq 0.004)] \cup [(y = \pm 0.004 m) \cap (0 m \leq x \leq 1 m)]$ chegarada $U(x_{G_2}, y_{G_2}) = V(x_{G_2}, y_{G_2}) = 0 m/c$ shartlar berildi.

Hisoblash sohasining chiqish chegarasi $y = 20 m$ (G_3) da tezliklarni aniqlash uchun silliq ulanish sharti qabul qilindi:

$$\frac{\partial U(x_{G_3}, y_{G_3})}{\partial n} = 0, \quad \frac{\partial V(x_{G_3}, y_{G_3})}{\partial n} = 0.$$

Siqilmaydigan suyuqlik oqimining o'rnatilishi jarayoni ko'rib chiqildi. Oqim ikki o'lchamli Navye-Stoks tenglamalari yordamida tavsiflandi:

$$\begin{cases} \frac{\partial \rho}{\partial t} + \frac{\partial \rho U}{\partial x} + \frac{\partial \rho V}{\partial y} = 0, \\ \frac{\partial \rho U}{\partial t} + \frac{\partial \rho U U}{\partial x} + \frac{\partial \rho U V}{\partial y} + \frac{\partial p}{\partial x} = \frac{\partial}{\partial x} (\mu_{eff} S_{11}) + \frac{\partial}{\partial y} (\mu_{eff} S_{12}), \\ \frac{\partial \rho V}{\partial t} + \frac{\partial \rho U V}{\partial x} + \frac{\partial \rho V V}{\partial y} + \frac{\partial p}{\partial y} = \frac{\partial}{\partial x} (\mu_{eff} S_{12}) + \frac{\partial}{\partial y} (\mu_{eff} S_{22}). \end{cases} \quad (2)$$

Bu yerda

$$S_{11} = 2 \frac{\partial U}{\partial x} - \frac{2}{3} \left(\frac{\partial U}{\partial x} + \frac{\partial U}{\partial y} \right); \quad S_{12} = \frac{\partial U}{\partial y} + \frac{\partial V}{\partial x};$$

$$S_{22} = 2 \frac{\partial V}{\partial y} - \frac{2}{3} \left(\frac{\partial U}{\partial x} + \frac{\partial V}{\partial y} \right); \quad \mu_{eff} = \mu + \mu_t.$$

Turbulentlik modeli sifatida modifikatsiyalangan $k - \varepsilon$ modeli tanlandi:

$$\left\{ \begin{aligned} \frac{\partial \rho k}{\partial t} + U \frac{\partial \rho k}{\partial x} + V \frac{\partial \rho k}{\partial y} &= \frac{\partial}{\partial x} \left[\left(\mu + \frac{\mu_t}{\delta_k} \right) \frac{\partial k}{\partial x} \right] + \frac{\partial}{\partial y} \left[\left(\mu + \frac{\mu_t}{\delta_k} \right) \frac{\partial k}{\partial y} \right] + \\ &+ G_k + G_b - \rho \varepsilon - 2\rho \varepsilon M_t^2 + S_k; \\ \frac{\partial \rho \varepsilon}{\partial t} + U \frac{\partial \rho \varepsilon}{\partial x} + V \frac{\partial \rho \varepsilon}{\partial y} &= \frac{\partial}{\partial x} \left[\left(\mu + \frac{\mu_t}{\delta_\varepsilon} \right) \frac{\partial \varepsilon}{\partial x} \right] + \frac{\partial}{\partial y} \left[\left(\mu + \frac{\mu_t}{\delta_\varepsilon} \right) \frac{\partial \varepsilon}{\partial y} \right] + \\ &+ \rho C_1 S \varepsilon - \rho C_2 \frac{\varepsilon^2}{k + \sqrt{\nu \varepsilon}} + C_{1\varepsilon} \frac{\varepsilon}{k} C_{3\varepsilon} G_b + S_\varepsilon, \end{aligned} \right. \quad (3)$$

bu esa obyektning adekvat tavsiflash imkonin berdi. Bu yerda quyidagi kattaliklardan foydalanilgan: $C_1 = \max \left[0.43, \frac{\eta}{\eta + 5} \right]$, $\eta = S \frac{k}{\varepsilon}$, $S = \sqrt{2S_{ij}S_{ij}}$, $\mu_t = \rho C_\mu \frac{k^2}{\varepsilon}$,

$$C_\mu = \frac{1}{A_0 + A_s \frac{kU^*}{\varepsilon}}, U^* = \sqrt{S_{ij}S_{ij} + \tilde{\Omega}_{ij}\tilde{\Omega}_{ij}}, \Omega_{ij} = \tilde{\Omega}_{ij} - 2\varepsilon_{ijk}\omega_k, A_s = \sqrt{6} \cos \phi, \phi = \frac{1}{3} \cos^{-1}(\sqrt{6}W),$$


$$W = \frac{S_{ij}S_{jk}S_{ki}}{\tilde{S}^3}, \tilde{S} = \sqrt{S_{ij}S_{ij}}, S_{ij} = \frac{1}{2} \left(\frac{\partial u_j}{\partial x_i} + \frac{\partial u_i}{\partial x_j} \right), G_k = -\rho \overline{u'_i u'_j} \frac{\partial u_j}{\partial x_i}, S \equiv \sqrt{2S_{ij}S_{ij}}, G_b = \beta g_i \frac{\mu_t \partial T}{\text{Pr}_t \partial x_i},$$

$$\text{Pr}_t = 1/a_t, a_0 = 1/\text{Pr} = k/\mu c_p, \beta = -\frac{1}{\rho} \left(\frac{\partial \rho}{\partial T} \right)_p, G_b = -g_i \frac{\mu_t}{\rho \text{Pr}_t} \frac{\partial \rho}{\partial x_i}, M_t = \sqrt{\frac{k}{a^2}}, C_{1\varepsilon} = 1.44,$$


$$C_2 = 1.9, \sigma_k = 1.0, \sigma_\varepsilon = 1.2, A_0 = 4.04.$$

§2.2 da yassi plastinkaning oqib o'tilishi masalasini yechish uchun sonli usul taqdim etilgan. Hisoblashda 60200 ta elementdan iborat to'r ishlatilib, profil yuzasiga yaqin hududlarda zichlangan to'r qo'llanilgan. Boshlang'ich yaqinlashuv sifatida potensial oqim natijalari ishlatilgan.


§2.3 da bo'ylama va ko'ndalang tezlik, bosim, turbulentslikning kinetik energiyasi va uning dissipatsiyasi maydonlari aniqlangan hamda hisoblash tajribasi natijalari tahlil qilingan.




2-rasm. To'g'ri to'rtburchakni oqib o'tishda $x/l = 0, 0.25, 0.5, 0.75, 1$ kesimlarda bo'ylama tezlik maydoni. $\alpha = 20^\circ$



3-rasm. To'g'ri to'rtburchakni oqib o'tishda bosim maydoni. $\alpha = 10^\circ$




4-rasm. Oqib o'tilayotga to'g'ri to'rtburchak sirtidagi bosim koeffitsienti C_p . $\alpha = 4^\circ$




5-rasm. To'g'ri to'rtburchakni oqib o'tishda ataka burchagining ko'taruvchi kuch koeffitsientiga ta'siri

Hisoblash natijalari shuni ko'rsatdiki, ataka burchagi ortishi bilan teskari oqim sohalari (2-rasm), yuqori va past bosim sohalari (3-rasm) yanada yaqqol namoyon bo'ladi. Sirt bosimi koeffitsienti $C_p = \frac{P - P_\infty}{0.5\rho U_0^2}$ (4-rasm) grafigining yopiq konturiga mos asosiy xususiyatlar ajratib ko'rsatildi. To'g'ri to'rtburchak uchun ko'rib chiqilgan ataka burchagi intervalida ko'taruvchi kuch koeffitsientining nomonoton o'zgarishi aniqlandi (5-rasm).

NASA 0012 profilining bir jinsli turbulent oqim bilan kichik ataka burchaklarida ($0^\circ \leq \alpha \leq 20^\circ$) oqib o'tilishi misolida $k-\varepsilon$ turbulentlik modelini qo'llash mumkinligi hamda Comsol Multiphysics dasturiy majmuasining avvalgi paragrafda keltirilgan shunga o'xshash oqim masalalarini hal qilishdagi imkoniyatlari isbotlandi. Hisob-kitoblar oqimning tezligi 20 m/s va xordaning 1 m uzunligi uchun o'tkazildi. Hisoblash jarayonining barqarorligi Galerkinning eng kichik kvadratlar usuli yordamida ta'minlandi. Bosim koeffitsienti (6-rasm) va ko'taruvchi kuch koeffitsientining (7-rasm, $\alpha = 6^\circ$) NASAning tajriba ma'lumotlari bilan solishtirish natijalari keltirilgan.



6-rasm. $\alpha = 10^\circ$ da NASA 0012 sirti bo'ylab bosim koeffitsientining nazariy va tajriba natijalari




11-rasm. Ataka burchagining NASA 0012 profilini ko'taruvchi kuch koeffitsientiga ta'siri

Dissertatsiyaning uchinchi "Zamonaviy turbulentlik modellari asosida shamol generatorini shamol bilan oqib o'tilishida uch o'lchovli oqim


maydonining tadqiqoti" nomli bobida aylanayotgan shamol turbinasi atrofidagi havo oqimining uch o'lchovli sonli modellashtirish natijalari taqdim etilgan. Tadqiqotda tarkibi to'rt prolyotli va vertikal aylanish o'qiga ega bo'lgan shamol energiyasi qurilmasi ko'rib chiqilgan. Ushbu konstruktsiya zamonaviy modellar ichida optimal variant bo'lib, yuqori aylanish tezligi, konstruktsiyaning yaxshi muvozanatlanganligi, harakatining barqarorligi kabi afzalliklarga ega.

§3.1 da vertikal aylanish o'qiga ega bo'lgan uch o'lchovli shamol turbinasining modeli taqdim etilgan (8-rasm). Turbina prolyotining uzunligi – 3 m. Prolyotning pastki chegarasi yer sathidan 0.5 m balandlikda joylashgan.



8-rasm. Shamol turbinasining hisoblash sohasidagi joylashishi

Masalani shakllantirish va yechishda 9-rasmda keltirilgan obyekt geometriyasidan foydalanildi.



9-rasm. Hisoblash sohasining geometriyasi

Uch o'lchovli turbulent havo oqimini modellashtirish uchun massaning saqlanishi qonuni tenglamasi va divergent shakldagi Reynoldsning o'rtalashtirilgan impuls saqlanishi tenglamalari ishlatildi. Hisoblashda standart $k-\varepsilon$ turbulentlik modeli:

$$\frac{\partial}{\partial x_i}(\rho k u_i) = \frac{\partial}{\partial x_i} \left[\left(\mu + \frac{\mu_t}{\delta_k} \right) \frac{\partial k}{\partial x_j} \right] + G_k + G_b - \rho \varepsilon - Y_M + S_k, \quad (8)$$

$$\frac{\partial}{\partial x_i}(\rho \varepsilon u_i) = \frac{\partial}{\partial x_i} \left[\left(\mu + \frac{\mu_t}{\delta_\varepsilon} \right) \frac{\partial \varepsilon}{\partial x_j} \right] + C_{1\varepsilon} \frac{\varepsilon}{k} (G_k + C_{3\varepsilon} G_b) - C_{2\varepsilon} \rho \frac{\varepsilon^2}{k} + S_\varepsilon, \quad (9)$$

hamda SST o'tish modeli qo'llanildi:

$$\frac{\partial}{\partial x_i}(\rho k u_i) = \frac{\partial}{\partial x_j} \left[\left(\mu + \delta_k \mu_t \frac{\partial k}{\partial x_j} \right) \right] + \gamma G_k - Y_k^* + S_k, \quad (10)$$

$$\frac{\partial}{\partial x_i}(\rho\omega u_i) = \frac{\partial}{\partial x_j} \left[\left(\mu + \delta_\omega \mu_t \frac{\partial \omega}{\partial x_j} \right) \right] + G_\omega - Y_\omega^* + D_\omega + S_\omega. \quad (11)$$

Turbulent qovushoqlik quyidagi formula asosida aniqlanadi: $\mu_t = \rho C_\mu \frac{k^2}{\varepsilon}$.

Masala yechimining bir qiymatlilik shartlari shakllantirildi.

$G_1 = (x^2 + y^2 = R^2 \cap x \leq 0)$ da kirish shartlari qo'yildi:

$$U_{G_1} = u_0, V_{G_1} = 0, W_{G_1} = 0, p_{G_1} = 0, k(x_{G_1}, y_{G_1}) = \frac{3}{2}(u_0 l_T)^2, \varepsilon(x_{G_1}, y_{G_1}) = C_\mu^{3/4} \frac{k^{3/2}}{L_T}.$$

$G_2 = ((0 \leq x \leq L_x) \cap |y| = L_y)$ chegarada simmetriya shartlari qo'llanildi:

$$\frac{\partial U_{G_2}}{\partial y} = 0, \frac{\partial V_{G_2}}{\partial y} = 0, \frac{\partial W_{G_2}}{\partial y} = 0, \frac{\partial k_{G_2}}{\partial y} = 0, \frac{\partial \varepsilon_{G_2}}{\partial y} = 0.$$

Hisob sohasining $x = L_x$ (G_3) kesimida silliq ulanish shartlari qo'llanildi:

$$\frac{\partial U_{G_3}}{\partial y} = 0, \frac{\partial V_{G_3}}{\partial y} = 0, \frac{\partial W_{G_3}}{\partial y} = 0, \frac{\partial \varepsilon_{G_3}}{\partial y} = 0, \frac{\partial k_{G_3}}{\partial y} = 0, \frac{\partial \omega_{G_3}}{\partial y} = 0.$$

Vertikal turbina aerodinamik xarakteristikalarining hisoblash gidrodinamik jarayonlarni sonli modellashtirish (CFD) usullari yordamida Comsol Multiphysics dasturiy paketi orqali amalga oshirildi. Hisoblashlar aylanma harakatni inobatga olib bajarildi, bu esa qo'zg'almagan tezlik maydoni berilganda qurilmaning aerodinamikasini o'rganish imkonini beradi (§3.2).

Turbulentlik modeli tenglamalarini yechish uchun to'liq bog'langan usul (Fully Coupled) tanlandi va bevosita PARDISO yechuvchi algoritmi qo'llanildi (§3.3). Nyuton iteratsion usuli dempifirovchi 0.1 koeffitsiyenti bilan ishlatildi. Maydonni barqarorlashtirish jarayoni 1000 iteratsiyagacha davom etdi. Ruxsat etilgan koeffitsiyent – 1, qoldiq faktor esa 1000 ga teng deb belgilandi. Ushbu parametrlar hisoblash jarayonida aniqlik va samaradorlikning optimal muvozanatini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

1-jadval

Burchak α ning oqim sohasidagi bo'ylama va ko'ndalang tezliklarning eng katta va eng kichik qiymatlari


| α burchak, grad | 0 | 15 | 30 | 45 | 60 | 75 |
|------------------------|--------|--------|-------|-------|-------|-------|
| U_{\max} (m/s) | 6.1 | 6.49 | 6.38 | 5.87 | 6.4 | 6.95 |
| U_{\min} (m/s) | -0.966 | -0.605 | -1.42 | -3.25 | -5.52 | -6.66 |
| V_{\max} (m/s) | 3.59 | 2.01 | 3.13 | 3.71 | 4.65 | 4.3 |
| V_{\min} (m/s) | -4.12 | -4.06 | -4.36 | -4.99 | -4.2 | -3.96 |

Bosim va tezliklarni moslashtirish sxemasi Nyuton usuliga o'xshash tarzda amalga oshirildi. Impuls va turbulentlik tenglamalari uchun ikkinchi tartibli aniqlikdagi sxema ishlatildi. Yechimning yaqinlashuvi uzliksizlik tenglamasi uchun 10^{-4} , boshqa tenglamalar uchun 10^{-5} mezonlar bo'yicha ta'minlandi.

Dissertatsiya ishida $\alpha = 0^\circ, 15^\circ, 30^\circ, 45^\circ, 60^\circ, 75^\circ$ burchak qiymatlarida shamol energiya qurilmasi aylanishi uchun uchta o'zaro perpendikulyar kesimlardagi turli natijalar taqdim etilgan.

1-jadvalda turli α ataka burchagining turli qiymatlarida oqim sohasidagi bo'ylama va ko'ndalang tezliklarning eng katta va eng kichik qiymatlari keltirilgan.

§3.4 da aylanayotgan shamol generatorini oqib o'tishi aerodinamikasi xususiyatlari bo'yicha tadqiqot o'tkazildi. 10-rasmda turli α burchaklarida $x=0$ kesimdagi oqimning bo'ylama tezlik profillari keltirilgan.




10-rasm. $x = 0$ m da o'rta gorizontol kesimidagi bo'ylama tezlik maydonlari

Xuddi shuningdek, ko'ndalang tezliklar, bosim, uch o'lchovli tezlik moduli, turbulentslikning kinetik energiyasi va uning dissipatsiya maydonlari aniqlandi. Aerodinamik hosilalar sifatida sirt bosimi koeffitsienti C_p va moment koeffitsienti

$$C_m = C_p \frac{g}{\omega L}$$

hisoblab chiqildi.



11-rasm. Vertikal o'qli shamol turbinasi yuqori qatoridagi alohida qanotchalari uchun integrallangan C_p qiymatlari

Natijalar shuni ko'rsatdiki, qanotchalarning aylanish o'qidan uzoqlashishi bilan aylanish momenti ulushi va integrallangan sirt bosimi koeffitsienti C_p ortadi. Ishchi sirtning oqim o'qiga yaqin joylashishi esa vertikal yo'nalishda istalmagan parazit oqimlarning yuzaga kelishiga olib keladi. Ushbu xulosalar (keyingi bobda) vertical o'qli shamol turbinasining konstruksiyasini takomillashtirish uchun asos bo'lib xizmat qildi (§3.5).

Ushbu bobning asosiy natijasi $\alpha = 0^\circ$ da shamol generatorining umumiy quvvatini aniqlash bo'ldi (2-jadval).


2-jadval

$\alpha = 0^\circ$ da quvvat koeffitsiyentini tajriba ma'lumotlari bilan solishtirish

| Model | C_p |
|----------------------------|-------|
| Standart $k - \varepsilon$ | 0.305 |
| Transition SST | 0.344 |
| Tajriba | 0.352 |

IV bob “Vertikal o‘q atrofida aylanuvchi shamol turbinasi: tajriba namunasining tavsifi, tayyorlanishi va optimallashtirilishi” deb nomlangan.

§4.1 da shamol harakatini elektr energiyasiga aylantiruvchi klapanli qurilma tavsifi berilgan. Ushbu bobning maqsadi yillik o‘rtacha shamol tezligi past (3-8 m/s) bo‘lgan hududlarda samarali ishlay oladigan shamol qurilmasini ishlab chiqish, loyihalash va tayyorlashdan iborat. 12-rasmda IL-21071166 loyiha doirasida IAP 7811 asosida ishlab chiqilgan shamol turbinasining ko‘rinishi keltirilgan.



1 – markaziy o‘q (val); 2 – ramka (karkas);
3 – elastik to‘xtagich; 4 – qaytish to‘xtagichi;
5 – ishchi holatdagi pichoqlar; 6 – ochiq
neytral holatdagi pichoqlar; 7 – mexanizm
qutisi

12-rasm. IAP 7811 asosidagi yaratilgan qurilmaning yon ko‘rinishi:

